

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 169 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELİ	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakhmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOBİ: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI.....	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI.....	144
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI.....	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	



AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH

Pirmedova Xayitgul Muxammedovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Axborot-resurs markazi direktori

E-mail: Khaytgul1971@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot-resurs markazlarining oliy ta'lim tizimidagi o'rni hamda ularning ta'lim jarayoni samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ARM faoliyatining ta'lim sifati bilan bog'liqligi, uning axborot bilan ta'minlash, kompetensiyaviy qo'llab-quvvatlash hamda ilmiy integratsiya mexanizmlari orqali namoyon bo'lishi yoritilgan. Shuningdek, ARM xizmatlaridan foydalanish darajasini baholash indikatorlari hamda "access–usage–impact" modeli asosida ta'lim jarayoniga ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqolada axborot savodxonligi treninglari, elektron resurslardan foydalanish va bibliometrik xizmatlarning ilmiy natijadorlikni oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ARM infratuzilmasi rivojlangan oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim ko'rsatkichlari hamda ilmiy faoliyati yuqori bo'lishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: axborot-resurs markazi, ta'lim sifati, axborot savodxonligi, elektron resurslar, ilmiy kommunikatsiya, bibliometrik xizmatlar, mustaqil ta'lim, raqamli kutubxona.

Abstract. This article analyzes the role of information resource centers in the higher education system and their impact on the effectiveness of the educational process. The study examines the relationship between IRC activities and the quality of education, highlighting their role through mechanisms of information provision, competency support, and scientific integration. In addition, indicators for evaluating the level of IRC service utilization and their impact on the educational process are considered based on the "access–usage–impact" model. The article substantiates the importance of information literacy training, the use of electronic resources, and bibliometric services in enhancing scientific productivity. The results indicate that in higher education institutions with well-developed IRC infrastructure, students demonstrate higher levels of independent learning and research activity.

Keywords: information resource center, quality of education, information literacy, electronic resources, scientific communication, bibliometric services, independent learning, digital library.

Аннотация. В данной статье научно проанализирована роль информационно-ресурсных центров в системе высшего образования и их влияние на эффективность образовательного процесса. В исследовании раскрыта взаимосвязь деятельности ИРЦ с качеством образования, а также её проявление через механизмы информационного обеспечения, компетентностной поддержки и научной интеграции. Кроме того, рассмотрены показатели оценки уровня использования услуг ИРЦ и их влияние на образовательный процесс на основе



модели «access–usage–impact». В статье обоснована значимость тренингов по информационной грамотности, использования электронных ресурсов и библиометрических сервисов в повышении научной результативности. Результаты исследования показывают, что в высших учебных заведениях с развитой инфраструктурой ИРЦ показатели самостоятельного обучения студентов и их научной активности являются более высокими.

Ключевые слова: информационно-ресурсный центр, качество образования, информационная грамотность, электронные ресурсы, научная коммуникация, библиометрические сервисы, самостоятельное обучение, цифровая библиотека.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida ta'lim tizimida axborot bilan ishlash jarayoni muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda talabalar bilim darajasini chuqurlashtirishda axborot-resurs markazlari (ARM) muhim infratuzilma hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim muassasalarida ARM nafaqat an'anaviy kutubxona vazifasini bajaradi, balki elektron ma'lumotlar bazalari, raqamli kutubxonalar, ilmiy jurnallar va xalqaro ma'lumotlar tizimlariga kirish imkoniyatini ham ta'minlaydi.

Axborot-resurs markazlari ta'lim jarayonida talabalar va tadqiqotchilarni o'quv, ilmiy hamda uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash, elektron resurslar orqali bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda mustaqil ta'limni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ARMLar elektron kataloglar, onlayn ma'lumotlar bazalari va raqamli platformalar orqali foydalanuvchilarga tezkor axborot xizmatini ko'rsatadi.

Shuningdek, ARMLar ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Elektron kutubxonalar, masofaviy ta'lim platformalari va xalqaro ilmiy bazalar bilan integratsiya qilish orqali talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda axborot-resurs markazlarining o'rni tobora ortib borayotgani qayd etilmoqda. Tadqiqotchilar elektron axborot bazalaridan foydalanish orqali ilmiy izlanishlarni samarali olib borishlari va yangi ilmiy natijalarga erishishlari mumkin. Shu sababli axborot-resurs markazlarining ta'lim jarayoniga ta'sirini ilmiy jihatdan baholash, ularning samaradorligini aniqlash hamda rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Ushbu masalani o'rganish ta'lim sifati va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida axborot-resurs markazlari (ARM) faqat axborotni saqlovchi infratuzilma emas, balki ta'lim jarayonining faol institutsional komponenti sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda universitet kutubxonasi "axborot-ta'lim muhitining integrativ markazi" sifatida talqin etiladi [1]. Shu nuqtai nazardan, ARM faoliyatining ta'lim jarayoniga ta'sirini baholash oliy ta'lim sifati monitoringining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Nazariy jihatdan ARM ta'lim jarayoniga uchta asosiy mexanizm orqali ta'sir ko'rsatadi:

- axborot bilan ta'minlash mexanizmi – fan sillabuslari, o'quv adabiyotlari hamda elektron resurslar orqali;
- kompetensiyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi – axborot savodxonligi, bibliografik maslahatlar va ilmiy bazalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali;
- ilmiy integratsiya mexanizmi – repozitoriylar, xalqaro ma'lumotlar bazalari va bibliometrik xizmatlar orqali.

Ilmiy tadqiqotlarda ta'lim sifati ko'pincha "input–process–output" modeli asosida baholanadi [2]. ARM faoliyati ushbu modelda "input" (resurslar), "process" (o'quv jarayonini axborot bilan ta'minlash) va "output" (talabalar kompetensiyalari hamda ilmiy natijalar) o'rtasidagi bog'lovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro tajribada ham universitet kutubxonasi proaktiv tizim sifatida talqin qilinib, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rag'batlantiruvchi muhim platformalardan biri sifatida e'tirof etiladi [3]. ARM xodimlari tomonidan tashkil etiladigan axborot savodxonligi treninglari talabalarning akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ilmiy manbalardan foydalanish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada nazariy va taqqoslovchi tahlil, normativ hujjatlar o'rganish va empirik misollar metodlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

ARM ta'sirini baholashda quyidagi indikatorlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- elektron resurslardan foydalanish intensivligi (yuklab olishlar soni);
- foydalanuvchilar soni hamda tashriflar dinamikasi;
- ilmiy maqolalar va iqtiboslar soni;
- bibliometrik xizmatlar orqali qo'llab-quvvatlangan tadqiqotlar ulushi;
- axborot savodxonligi treninglarida ishtirok etgan talabalar ulushi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ARM xizmatlari rivojlangan oliy ta'lim muassasalarida:

- talabalarning mustaqil ta'lim ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi;
- bitiruv malakaviy ishlarining ilmiy darajasi oshadi;
- xalqaro ilmiy bazalarda chop etilgan maqolalar soni ortadi.

Natijada ARM faoliyati va ta'lim sifati o'rtasida bevosita hamda bilvosita bog'liqlik mavjudligi kuzatiladi. ARM infratuzilmasi va kadrlar salohiyati qanchalik rivojlangan bo'lsa, ta'lim jarayoni shunchalik ilmiy va innovatsion xarakter kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, axborot-resurs markazlari oliy ta'lim tizimida bilimlarni yaratish va uzatish jarayonining institutsional katalizatori sifatida namoyon bo'lmoqda. ARM faoliyatining ta'lim jarayoniga ta'sirini tizimli baholash esa oliy ta'lim sifatini oshirish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Axborot-resurs markazlari faoliyatining real samaradorligi ularning moddiy-texnik bazasi yoki fond hajmi bilan emas, balki foydalanuvchilar — talabalar va professor-o'qituvchilarning xizmatlardan foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida ARM "passiv axborot saqllovchi" emas, balki ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaraladi. Shu sababli foydalanish darajasi ARM faoliyatining natijaviy ko'rsatkichi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazariy jihatdan foydalanish darajasi "access—usage—impact" modeli orqali tushuntiriladi. Ya'ni:

Access (kirish imkoniyati) — resurslardan foydalanish uchun zarur infratuzilma va sharoitlarning mavjudligi;

Usage (foydalanish intensivligi) — real yuklab olishlar, tashriflar hamda onlayn kirishlar soni;

Impact (ta'sir) — foydalanish natijasida ta'lim sifati va ilmiy ko'rsatkichlarning oshishi.

Axborot-resurs markazlari faoliyatining o'quv va ilmiy jarayon samaradorligiga ta'siri zamonaviy oliy ta'lim tizimida strategik ahamiyatga ega. ARMLar nafaqat axborotni saqllovchi va yetkazib beruvchi muassasa, balki ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi, ilmiy kommunikatsiya markazi hamda raqamli bilim infratuzilmasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Avvalo, ARMning o'quv jarayoniga ta'siri uning ta'limiy funksiyalari orqali namoyon bo'ladi. M.X. Maxmudov ta'lim sifatini oshirishda innovatsion kutubxonalarning ahamiyati haqida ta'kidlashicha, zamonaviy kutubxona "talabani mustaqil ta'lim olishiga sharoit yaratuvchi, raqamli axborot manbalariga tezkor kirish imkonini beruvchi hamda bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi markaz" sifatida faoliyat yuritadi [4]. Bu jihat kredit-modul tizimi sharoitida ayniqsa muhimdir, chunki talabani o'quv yuklamasining katta qismi mustaqil ta'limga to'g'ri keladi.

O'quv jarayonining samaradorligiga ARM quyidagi yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi:

- o'quv adabiyotlari va elektron resurslar bilan ta'minlash;
- elektron kataloglar va ma'lumotlar bazalari orqali tezkor qidiruvni ta'minlash;
- axborot savodxonligi bo'yicha treninglar tashkil etish;
- raqamli platformalar (E-library, Scopus, Web of Science va boshqalar) bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.


"O'zbekiston axborot-kutubxona muassasalari faoliyatining milliy modeli" standartida ARM faoliyatini ta'lim sifatining institutsional kafolati sifatida baholash uchun asos mavjudligi ta'kidlanadi [5].

Ilmiy jarayon samaradorligiga ta'sir masalasida ARMning roli yanada kengroqdir. Ilmiy tadqiqot faoliyati uchun zarur bo'lgan:

- monografiyalar va ilmiy jurnallar fondi;
- xalqaro ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyati;
- dissertatsiyalar va avtoreferatlar arxivi;
- plagiatni aniqlash tizimlari;
- bibliometrik tahlil xizmatlari ilmiy natijadorlikni belgilovchi muhim omillar hisoblanadi.

Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish nazariyasida ta'kidlanishicha, zamonaviy ARM "axborotni yaratish, saqlash va yetkazib berish jarayonlarini integratsiyalashgan ijtimoiy-madaniy tizim" sifatida qaraladi. Demak, u ilmiy axborot oqimlarini boshqarish orqali universitetning ilmiy reytingiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy samaradorlikka ta'sir mexanizmini quyidagi rasmda keltirilgandek izohlash mumkin.



1-rasm. Axborot-resurs markazlari resurslaridan foydalanishning universitet ilmiy samaradorligiga ta'sir mexanizmi.

Axborot-resurs markazlari (ARM) zamonaviy oliy ta'lim tizimida nafaqat axborot bilan ta'minlovchi infratuzilma, balki talabalar va professor-o'qituvchilarda axborot madaniyati hamda axborot savodxonligini shakllantiruvchi muhim pedagogik institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli transformatsiya, global ilmiy axborot oqimining kengayishi hamda ochiq ta'lim resurslarining rivojlanishi sharoitida axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va undan maqsadli foydalanish ko'nikmalari ta'lim sifati va ilmiy samaradorlikning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan.

Axborot savodxonligi nazariy jihatdan shaxsning axborotga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, zarur manbalarni topish, ularni tanqidiy baholash hamda ilmiy va amaliy faoliyatda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Axborot madaniyati esa mazkur ko'nikmalarning etik me'yorlar hamda akademik halollik tamoyillari asosida shakllanishini ifodalaydi. Shu bois ARMLar faoliyati kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviy bog'liq bo'lib, talabalarni mustaqil fikrlashga, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga hamda manbalardan to'g'ri foydalanishga o'rgatadi.

Oliy ta'lim jarayonida ARMLar axborot savodxonligini shakllantirishda bir necha yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Avvalo, elektron kataloglar, ilmiy ma'lumotlar bazalari, repozitoriylar hamda ochiq ta'lim platformalaridan foydalanish bo'yicha treninglar tashkil etiladi. Bunday mashg'ulotlar talabalarni zamonaviy axborot muhiti bilan samarali ishlashga tayyorlaydi. Ikkinchidan, bibliografik maslahatlar va metodik ko'mak orqali ilmiy maqolalar, kurs va bitiruv ishlari uchun sifatli manbalarni tanlash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Uchinchidan, akademik yozuv va havola berish qoidalarini o'rgatish orqali plagiatning oldi olinadi hamda ilmiy etikaga rioya qilish madaniyati mustahkamlanadi. To'rtinchidan, raqamli xavfsizlik va axborot etikasi masalalarini tushuntirish orqali axborotdan mas'uliyatli foydalanish ko'nikmalari shakllantiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, axborot savodxonligi bo'yicha tizimli treninglar yo'lga qo'yilgan oliy ta'lim muassasalarida talabalar ilmiy manbalardan foydalanishda mustaqilroq, tahliliy fikrlashga moyilroq hamda ilmiy yozuv madaniyati jihatidan yuqori natijalarga erishadilar. Bunday muhitda bitiruv malakaviy ishlarining metodik sifati oshadi, ilmiy maqolalarda havolalar to'g'ri rasmiylashtiriladi va akademik halollik tamoyillari mustahkamlanadi. Professor-o'qituvchilar uchun ham ARM tomonidan ko'rsatiladigan bibliometrik xizmatlar, xalqaro ilmiy bazalar bilan ishlash bo'yicha maslahatlar hamda ilmiy kommunikatsiya vositalari ilmiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.



Axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni ta'lim sifati bilan bevosita bog'liq. Talaba axborotni tanqidiy tahlil qilish, ishonchli va noaniq manbalarni farqlash hamda ilmiy dalillarga asoslanish ko'nikmalarini egallagan taqdirda uning kasbiy kompetensiyasi yanada mustahkamlanadi. Bu esa nafaqat o'quv natijalariga, balki bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuni ham qayd etish joizki, axborot-resurs markazlari oliy ta'lim tizimida axborot madaniyatini shakllantirishning muhim institutsional asosini yaratadi. Ular orqali talabalar va professor-o'qituvchilarning raqamli, ilmiy hamda kommunikativ kompetensiyalari rivojlanadi. Natijada ta'lim jarayoni yanada ilmiy asoslangan, mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan va sifat jihatidan barqaror rivojlanadigan tizimga aylanadi. ARMLarning ushbu pedagogik hamda madaniy funksiyasi oliy ta'lim sifati va ilmiy samaradorlikni oshirish strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Михайлов А. В. Интегративная функция библиотеки вуза в информационно-образовательном пространстве. – Москва, 2025.
2. Маркова Н. Н. Управление библиотекой в условиях информатизации вуза. – Саратов, 2022.
3. Барышев Р. А. Университетская библиотека как проактивная система. – Москва, 2020.
4. Maxmudov M. X. Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish. – Toshkent, 2009.
5. O'zbekiston axborot-kutubxona muassasalari faoliyatining milliy model standarti. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2019. – 132 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100